



UO'T: 633.1.631.5

TAKRORIY EKILGAN MAKKAJO'XORI HOSILDORLIGIGA URUG' EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI

Sotvoldi Tursunov 

Namangan Davlat Texnika Universiteti professori

Annotatsiya. Maqolada makkajo'xorini takroriy ekin sifatida ekishning afzalliklari, makkajo'xori urug'ini ekish muddatlarini uning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: don, poya, rivojlanish, o'sish, ro'vak, ekish sxemasi, hosildorlik, urug', takroriy, oziqabop, silos.

Аннотация. В статье освещаются преимущества посева кукурузы в качестве повторной культуры, а также влияние сроков посева кукурузы на ее рост, развитие и продуктивность.

Ключевые слова: зерно, стебель, развитие, рост, пар, схема посева, продуктивность, семена, повторение, корм, силос.

Abstract. The article discusses the advantages of sowing corn as a secondary crop, the impact of the timing of sowing corn on its growth, development and yield.

Key words: grain, stem, development, growth, fallow, sowing pattern, productivity, seeds, repetition, feed, silage.

KIRISH

Makkajo'xori donli va ozuqabop ekinlar orasida hosildorligi, ozuqabopligi, foydalanish uchun qulayligi bilan muhim o'rin tutadi. Sug'oriladigan maydonlarda makkajo'xori rekord darajada don va silosbop ko'k poya bera oladi. O'zbekistonda boshhoqli don ekinlari har yili 1 mln gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarga ekilmoqda. Dalalar hosildan may oyining ikkinchi yarmi hamda iyun oyining birinchi yarmidan boshlab bo'shaydi. Ulardan bo'shagan maydonlarga makkajo'xori don va silos uchun ekiladi. Karam, kartoshkadan bo'shagan maydonlar ham makkajo'xorini takroriy ekishga yaroqli.

Bizning serquyosh yurtimizning sug'oriladigan maydonlarida suv yetarli bo'lgan sharoitda takroriy ekinlar yetishtirib, mo'l hosil olish imkoniyati mavjud. Lekin, mamlakatimizning mo'l-ko'l xarorati, yorug'ligi tuproq unumdorligini



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

oshirish uchun ichki imkoniyati yetarli bo'lsada, bundan xozircha unumli foydalanilmayapti. Xususan, mamlakatimizda issiq va iliq xaroratli kunlar 220-260 kunni, bulutsiz xaroratli kunlar 5-6 oyni tashkil etadi, yozgi yorug' kun 15 soat davom etadi, quyosh yog'dusi esa yiliga 2500-3000 soatga yetadi. Ayni paytda g'o'za-bug'doy navbatlab ekishning kuzgi bug'doy dalasi kechi bilan 20-iyundan 1noyabrga qadar bo'sh qolib, yerning umri bekorga o'tmoqda. Xuddi shu o'rinda K.A.Timiryazevning «O'z vaqtida foydalanilmagan quyosh nuri abadiy nobud bo'ladi» degan iborasini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz. Binobarin, hozirda 130-140 kun mobaynida quyosh yog'dusidan foydalanish yo'q hisobida.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Kuzgi bug'doyni hosili yig'ishtirib olingandan keyin bo'shagan yerga ekilgan makkajo'xorini o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga makkajo'xori urug'ini ekish muddatlarini ta'sirini o'rganish maqsadida tajriba o'tkazdik.

Tajriba quyidagi tizimda o'tkazildi.1-Variant urug' 20-iyunda ekildi.2-Variant urug' 30-iyunda ekildi.3- Variant urug' 10-iyulda ekildi.Tajriba uchta variantdan iborat bo'lib,to'rt qaytariqda o'tkazildi. Bitta bo'lmaning egallagan maydoni $20 \times 5.6 = 112 \text{ m}^2$. Makkajo'xori 70x20-1 sxemada ekildi. Tajribada makkajo'xorini Moldavskiy 257 duragayi ekildi.Tajribada quyidagi kuzatishlar o'tkazildi:

Makkajo'xori o'simligini o'sishi 5-6 ta barg chiqarganda, 10-12 ta barg chiqarganda, ro'vak chiqarganda va gullash davrlarida aniqlandi. Tajribada makkajo'xori hosilining strukturasi aniqlandi. Varianlar bo'yicha makkajo'xorining don hosili aniqlandi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Biz o'tkazgan tajribamizda makkajo'xori poyasini o'sishini uch marta kuzatdik. Tajribada 1-kuzatish 18-iyulda o'tkazildi. Bunda tajribani 20-iyun ekilgan 1-variantida poyaning balandligi 41,6 sm bo'ldi, bargi esa 5,9 dona bo'ldi. Tajribani 30-iyunda ekilgan 2-variantida poyaning balandligi 37,4 sm bo'ldi, bargi esa 5,6 dona bo'ldi. Tajribani 10-iyulda ekilgan 3- variantida poyaning balandligi 32,5 sm,bargi 5,2 dona bo'ldi. 2-kuzatish 3-avgust kuni o'tkazildi. Bunda tajribani 1-variantida makkajo'xori poyasining bo'yi va barg soni 2- va 3-variantlarga nisbatan yuqori bo'ldi. Bu qonuniyat keyingi kuzatuvlarda ham saqlanib qoldi. Tajribadagi oxirgi kuzatuvimizda makkajo'xori urug'i 20-iyunda ekilgan 1-variantimizda makkajo'xori poyasining bo'yi 247,4 sm, bargi esa 17,2 dona bo'ldi. Makkajo'xori urug'i 30-iyunda ekilgan 2-variantimizda poyaning balandligi 228,6 sm ni tashkil qildi. Bargi 16,8 dona bo'ldi. 2-variantga nisbatan 1-variantda makkajo'xori poyasining balandligi 18,4 sm yuqori bo'ldi, bargi esa 0,4 dona ko'p bo'ldi.

Tajribaning 3-variantida makkajo'xori poyasining balandligi 192,4 sm, bargi 16 dona bo'ldi. 3-variantga nisbatan 1-varintda makkajo'xori poyasining balandligi 55 sm yuqori bo'ldi, bargi esa 1,2 dona ko'p bo'ldi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, takroriy ekilgan makkajo'xori urug'lari qanchalik erta muddatda

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ekilsa, poyaning o'sishi shunchalik yaxshi bo'lishi, bargi ham ko'proq shakllanishi kuzatildi.

Makkajo'xori o'simligining hosildorligi bir biri bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi omillarga bog'liq bo'ladi. O'simlik asosiy xayot faktorlari bilan yetarli ta'minlanganda nav yoki duragayning yuqori hosil bera olish imkoniyati yaratiladi. Makkajo'xori yetishtirish agrotexnik tadbirlari orasida ekinni almashlab ekishdagi o'rmini to'g'ri belgilash, sug'orish, oziqlantirish va boshqalar muhim ahamiyatga ega. Takroriy ekilgan makkajo'xori hosildorligiga, ayniqsa, ekish muddatlarining ta'siri katta. Biz o'tkazgan tajribamiz variantlari bo'yicha makkajo'xori don hosildorligini aniqladik

Tajribani makkajo'xori urug'i 20-iyunda ekilgan 1-variantida gektaridan 49,9 sentner, makkajo'xori urug'i 30-iyunda ekilgan 2-variantidan 42,5 sentner va 10-iyulda ekilgan 3-variantidan 32,1 sentner/ga hosil olindi. Makkajo'xori hosildorligi 3-variantga nisbatan 1-variantdan 17,8 sentner, 2-variantdan 10,4 sentner yuqori hosil olindi.

XULOSA

Bundan ko'rinib turibdiki, takroriy ekilgan makkajo'xori urug'ini ekish muddatini kechikishi hosildorlikning kamayishiga ta'sir qilar ekan.

1. Bug'doydan bo'shagan yerga makkajo'xorini tezpishar duragaylarini ekib, donini bemalol pishirib olish mumkin;+

2. Makkajo'xori urug'ini ekish muddatini kechiktirish o'simlikni o'sishi va rivojlanishini kechikishiga sabab bo'ladi;

3. Makkajo'xori urug'ini ekish muddati kechikkan sari poyaning balandligi kamayishiga olib keladi;

4. Bug'doydan keyin makkajo'xori urug'ini 20-iyunda ekish makkajo'xorini gektaridan 50 sentnergacha hosil olishni ta'minlaydi;

5. Bug'doydan bo'shagan yerga makkajo'xori urug'ini 20-iyunda, kechi bilan 30-iyungacha ekishni tavsiya qilamiz.

ADABIYOTLAR

1. Atabayeva X. vaboshqalar. "O'simlikshunoslik" Toshkent – 2000.
2. Baxromov S., Atajanov M. "Takroriy ekinlar va tuproq unumdorligi" Andijon – 2009.
3. Bo'riyev S. "Bir yilda ikki hosil" O'zbekistonqishloqxo'jaligijurnali – 2007, №6.
4. Boboyev F. "Makkajo'xorini qulay ekish muddati va ko'chat qalinligi" O'zbekistonqishloqxo'jaligijurnali – 2008, №2.
5. Вавилов П.П. "Растениеводства" Тошкент – 1986 й.
6. Tursunov S. "Makkajo'xorini takroriy ekin sifatida ekish foydalidir" Andijon – 2007.

